

Onlayn mikroqarz Oferta shartnomasi

“O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda-Bank) ushbu Ofertani quyidagi shartlarda tuzishni taklif etadi. Jismoniy shaxs (keying o‘rinlarda-Qarz oluvchi) Bankning mobil ilovasidan foydalanib Onlayn mikroqarz xizmatidan foydalanish bo‘yicha mazkur taklifni qabul qiladi. Ushbu taklifni qabul qilish shartlarini bajarish shartnomaning tuzilishi va yuridik kuchga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Atamalar

“Milliy” mobil ilovasi-foydalanuvchiga, xizmat ko‘rsatuvchilarga onlayn rejimda haq to‘lash, o‘z plastik kartalarini boshqarish va boshqa amallarni bajarish imkoniyatini beruvchi mobil qurilmalar uchun mo‘ljallangan dasturiy ta‘minot;

Onlayn mikroqarz-Bank tomonidan naqd pulsiz shaklda bank kartasiga o‘tkazish yo‘li bilan ajratiladigan kredit xizmati turi;

Oferta-Bank tomonidan tasdiqlangan va “Milliy” mobil ilovasi mobil ilova orqali elektron shaklda e‘lon qilingan Onlayn mikroqarz bo‘yicha shartnoma tuzishni taklif qiluvchi xujjat;

Aksept-Ofertani to‘liq va shartsiz qabul qilish. Ofertani qabul qilish shartnoma tuzilishini ta‘minlaydi va yuridik kuchga ega bo‘ladi;

Shartnoma-Qarz oluvchi va Bank o‘rtasida Onlayn mikroqarzni masofadan turib olish bo‘yicha xizmatlarni taqdim etish to‘g‘risidagi Ofertani masofadan Aktseptlash orqali tuzilgan shartnoma.

1. Shartnoma predmeti

1.1. Bank tomonidan Onlayn mikroqarz “Milliy” mobil ilovasi orqali Bank tomonidan ish haqi loyihasi doirasida emissiya qilingan faol plastik kartaga bo‘lgan Qarz oluvchiga taqdim etiladi. Agar Qarz oluvchi byudjet tashkiloti xodimi bo‘lsa, Onlayn mikroqarz “Milliy” mobil ilovasida ochilgan elektron hamyon hisobiga o‘tkaziladi. Qarz oluvchi ushbu Ofertada ko‘rsatilgan tartibda Onlayn mikroqarz va unga hisoblangan foizlarni to‘liq qaytaradi.

1.2. Onlayn mikroqarz Qarz oluvchining bank kartasiga yoki elektron hamyon hisobiga kelib tushgan kundan boshlab ajratilgan hisoblanadi.

2. Ofertaning umumiy shartlari

2.1. Ushbu Ofertani qabul qilgan Qarz oluvchi:

- “Milliy” mobil ilovasining “Kreditlash shartlari” bo‘limida keltirilgan barcha shartlar va ma‘lumotlar bilan tanishganligini tasdiqlaydi;

- O‘zi haqidagi ma‘lumotlarni oshkor qilmasdan Onlayn mikroqarz olish mumkin emasligini tushunadi va Bankka kerakli bo‘lgan barcha elektron ma‘lumotlarni taqdim etadi;

- Bank tomonidan taqdim etilayotgan hujjatlar elektron shaklda taqdim etilishini va hujjatlarni bunday shaklda taqdim etilishi Qarz oluvchiga maqbulligini tasdiqlaydi. Ofertaning elektron shakli qog‘oz shaklidagi hujjat bilan tenglashtiriladi va u bilan bir xil huquqiy kuchga ega bo‘ladi;

- Qarz oluvchi mustaqil ravishda mobil qurilmasi orqali “Milliy” mobil ilovasidan foydalanishi, mobil ilova va uning akkaunti orqali bajarilgan barcha amallar Qarz oluvchi tomonidan bajarilgan deb hisoblanadi;

- Taklif etilgan Ofertaning barcha shartlarini ixtiyoriy tarzda va ongli ravishda tushunib tasdiqlaydi.

3. Shartnomani aktseptlash tartibi

3.1. Ushbu Ofertaga asosan aktsept Qarz oluvchining roziligi bo‘lgan elektron shaklda amalga oshiriladi va Qarz oluvchi “Milliy” mobil ilovasi orqali Onlayn mikroqarz xizmatidan foydalanishni akseptlagan vaqtdan boshlab qabul qilingan hisoblanadi. Aktsept qabul qilingandan so‘ng, Bank Qarz oluvchiga aktseptni qabul qilinganligi to‘g‘risida xabar yuboradi.

3.2. Bank tomonidan Onlayn mikroqarz summasi ma‘qullangandan so‘ng, Qarz oluvchi shaxsini tasdiqlash uchun MyId tizimi orqali identifikatsiyadan o‘tishi talab qilinadi.

3.3. Qarz oluvchi MyId tizimi orqali identifikatsiyadan o‘tgan vaqtdan boshlab 48 soat ichida Bankning 1344, +998 78 148 00 raqamlari orqali Call-markaziga qo‘ng‘iroq qilib

qo‘shimcha tasdiqdan o‘tishi va Qarz oluvchi o‘z shaxsini tasdiqlashi lozim. Shaxs muvaffaqiyatli tasdiqlanganidan so‘ng, Call-markaz xodimi Onlayn mikroqarz olish jarayoniga firibgarlik aralashuvi yo‘qligini tasdiqlash uchun Qarz oluvchiga qayta qo‘ng‘iroq qilidi.

3.4. Qarz oluvchining shaxsi muvaffaqiyatli tasdiqlanganidan va qarzni firibgar ta‘siriz olganligi tasdiqlanganidan so‘ng, Qarz oluvchining arizasi qarz yuki oshganligi yoki muddati o‘tgan qarzlari vujudga kelmaganligi yuzasidan qayta tekshiriladi. Bunday omillar aniqlangan taqdirda, Qarz oluvchiga Onlayn mikroqarz berish rad etiladi va u takroran ariza berishi kerak.

3.5. Agar mijoz tekshiruvlarning barcha bosqichlaridan muvaffaqiyatli o‘tsa, ma‘qullangan summa barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o‘tgan paytdan boshlab bir ish kuni davomida uning faol ish haqi kartasi yoki elektron hamyon hisobiga o‘tkaziladi.

3.6. Bank quyidagi hollarda Onlayn mikroqarz berishni rad etishi mumkin:

- Qarz oluvchi skoringdan o‘tmasa, shu jumladan Ofertaning 3.4-bandiga muvofiq takroriy skoringdan o‘tmagan bo‘lsa;

- Qarz oluvchi Bankning Call-markazi orqali shaxsini qo‘shimcha identifikatsiyalashdan o‘tmagan bo‘lsa;

- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4. Onlayn mikroqarz shartlari

4.1. Onlayn mikroqarz shartlari:

4.1.1. Muddati – 60 oygacha;

4.1.2. Summasi – Qarz oluvchi tomonidan ko‘rsatilgan summa;

4.1.3. Foiz to‘lovi:

4.1.3.1. NBuning ish haqi loyihasi ishtirokchilariga 25-28% gacha;

4.1.3.2. Byudjet tashkiloti xodimlariga 25-28% gacha;

4.1.3.3. Rasmiy daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar 28-31% gacha

4.1.4. Ta‘minot – Kreditni qaytarmaslik xatari sug‘urta polisi;

4.1.5. Onlayn mikroqarzni qaytarish va unga hisoblangan foizlarni to‘lash “Milliy” mobil ilovasida avtomatik tarzda shakllantiriladigan qaytarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

4.2. Qarz oluvchi Bankka taqdim etgan shaxsiy ma‘lumotlari asosida uning to‘lovga layoqatliligi, kredit tarixi, bank kartalari harakati tahlili va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlari skoring modeli yordamida tahlil qilinadi. Kreditga layoqatlilik tahlili natijalariga ko‘ra, Qarz oluvchi “Milliy” mobil ilovasida xabar berish orqali taqdim etilayotgan Onlayn mikroqarz shartlari yoki uni berish rad etilganligi to‘g‘risida xabardor qilinadi.

4.3. Onlayn mikroqarzni qaytarish jadvaliga muvofiq navbatdagi to‘lovni to‘lash muddati o‘tkazib yuborilgan taqdirda, muddati o‘tkazib yuborilgan to‘lov summasiga joriy asosiy qarz bo‘yicha foiz stavkasi miqdorining 1,2 baravari miqdorida oshirilgan stavka bo‘yicha foizlar hisoblanadi.

4.4. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to‘g‘risida”gi Nizom (Adliya vazirligining 2020-yil 13-aprelda 3229-son bilan ro‘yxatga olingan)ga asosan Qarz oluvchi ushbu Oferta bo‘yicha Qarz oluvchining to‘lov majburiyatlarini bajarish uchun Bankda, boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlar va plastik kartalarga to‘lov talabnomasini akseptsiz tartibda qo‘yish yo‘li bilan Qarz oluvchining biror-bir farmoyishi va/yoki e‘tirofi va/yoki roziligini olmasdan Bankka Qarz oluvchining istalgan hisobvaraqlari va plastik kartalaridan pul mablag‘larini istalgan valyutada hisobdan chiqarish uchun haqiqiy, qaytarib olinmaydigan huquqni beradi.

4.5. Ushbu Ofertaga muvofiq, Onlayn mikroqarz to‘lovi Qarz oluvchining bank xisobvarag‘iga, kartasiga o‘tkazilgan ish haqi va taqiqlanmagan boshqa mablag‘lar hisobidan va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

5.1 Qarz oluvchining huquqlari:

5.1.1. Bankning Onlayn mikroqarz ajratish tartibi bilan tanishib chiqish, mikroqarz doirasida mablag'lardan foydalanish.

5.1.2. To'lov jadvalida ko'rsatilgan sanalarda Bank kartasiga pul mablag'larini kiritish orqali Onlayn mikroqarz va unga xisoblangan foizlarni qaytarish.

5.1.3. Oferta aktseptlanganidan keyin, Onlayn mikroqarz mablag'lari haqiqatda olingunga qadar ushbu xizmatdan foydalanishdan biron-bir to'lovlarsiz voz kechish.

5.1.4. Kredit qarzdorligini muddatidan avval qisman yoki to'liq qaytarish.

5.2. Qarz oluvchining majburiyatlari:

5.2.1. Ushbu Oferta talablarini bajarish;

5.2.2. Mikroqarz ajratilganidan boshlab har oyda, kredit bo'yicha navbatdagi to'lovlarni Bankda Qarz oluvchi nomiga ochilgan hisobvaraqaqa oldindan, asosiy qarz va foizlar bo'yicha navbatdagi to'lov muddati kelgunicha kiritib borish;

5.2.3. Turar joyi, ish joyi, xizmat ko'rsatuvchi banki, ish haqi kartasining rekvizitlari, familiyasi yoki ismi o'zgarishi kutilayotgani, shuningdek mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar to'g'risida o'zgarishi kutilayotgan sanadan ko'pi bilan 3 kun ichida Bankka xabar berish.

5.3. Bankning huquqlari:

5.3.1. Qarz oluvchining mazkur Oferta bo'yicha majburiyatlarni bajarishi yuzasidan uning moliyaviy holatini, bank kartalaridagi aylanmalarini, ta'minot yetarililigini tahlil qilib boradi.

5.3.2. Onlayn mikroqarznning navbatdagi qismi o'z vaqtida so'ndirilmagan hollarda:

a) Onlayn mikroqarz (yoki uning bir qismi) muddati o'tgan to'lovlar hisobvarag'iga kiritilgan sanadan boshlab kredit uchun haqni oshirilgan foiz stavkasi bo'yicha hisoblash;

b) Qarz oluvchidan Onlayn mikroqarzni (kredit bo'yicha qarz qoldig'ini) muddatidan oldin qaytarish va foizlarni to'lash yuzasidan darhol choralar ko'rishini talab qilish;

v) ushbu Ofertani belgilangan tartibda bekor qilish va qonunchilikda belgilangan choralar ko'rish.

5.3.3. Qarz oluvchi tomonidan ushbu Oferta shartlarining bajarilishini nazorat qilish.

5.4. Bankning majburiyatlari:

5.4.1. "Milliy" mobil ilovasini uzluksiz ishlashini ta'minlash.

5.4.2. Ushbu Oferta shartlarida nazarda tutulgan shartlar asosida Qarz oluvchiga Onlayn mikroqarz ajratish.

5.4.3. Qarz oluvchini Onlayn mikroqarz muddatidan oldin undirishga qaratish sabablari to'g'risida yozma xabardor qilish.

6. Tomonlarning javobgarligi

6.1. Tomonlar ushbu shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarni bajarmaganligi va lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.2. Bank quyidagi hollarda Qarz oluvchining nomidan mobil ilova orqali olingan pul mablag'lari uchun javobgar bo'lmaydi, jumladan:

- Qarz oluvchining aybi yoki extiyotsizligi bilan Onlayn mikroqarz ajratilgan karta PIN kodi va parollari boshqa shaxslarga ma'lum bo'lib qolishi;

- Bankka Qarz oluvchi tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilishi natijasida yuzaga kelgan holatlar bo'yicha.

6.3. Tomonlar o'z majburiyalarini bajarmasliklari yoki lozim darajada bajarmasliklari yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (Fors-major) tufayli kelib chiqqan hollarda tomonlar javobgarlikdan ozod etiladi.

7. Ma'lumotlarni oshkor qilish tartibi

7.1. Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlanishiga, foydalanishga shuningdek, ushbu Oferta bo'yicha ma'lumotlarni Kredit byurosiga va agar kerak bo'lsa sug'urta kompaniyasiga taqdim etilishiga rozilik beradi.

7.2. Bank o'z majburiyatlarini bajarish uchun ushbu Oferta doirasida barcha zarur ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berishga haqlidir.

7.3. Bank Qarz oluvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

8. Shartnomaning bekor bo'lish shartlari

8.1. Oferta tomonlar Ofertada belgilangan shartlarni to'liq bajarganlaridan keyin bekor qilingan deb hisoblanadi.

8.2. Ofertaning amal qilish muddatining tugashi Qarz oluvchini o'z majburiyatlarini bajarishdan yoki ushbu Oferta shartlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

9. Nizolarni hal qilish tartibi

9.1. Ushbu Oferta bo'yicha yuzaga kelgan har qanday nizolar va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokaralar orqali hal qilinadi.

9.2. Agar tomonlar kelisha olmasalar, nizolar Bankning manzili bo'yicha hududdagi Fuqarolik sudlarida hal qilinadi.

10. Ofertaning boshqa shartlari

10.1. Onlayn mikroqarz xizmatini ko'rsatish bo'yicha arizalar mobil ilova orqali 24/7 rejimida qabul qilinadi.

10.2. Onlayn mikroqarz muddatini uzaytirish amalga oshirilmaydi.

10.3. Qarz oluvchi bankning yozma roziligisiz mazkur shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o'tkazishga haqli emas.

10.4. Xujjatlar elektron ko'rinishda bankning ma'lumotlar bazasida saqlanadi.

10.5. Ushbu Oferta bo'yicha barcha xabarnomalar Tomonlar manziliga yoki xabarnoma jo'natish manzili sifatida belgilangan mobil telefon raqamiga jo'natish orqali amalga oshiriladi.

Bankning yuridik manzili:

“O‘zmilliybank” AJ

Manzil: Toshkent sh.,

Amir Temur shox ko'chasi, 101 uy

Telefon: 998 78 148 00 10

Veb sahifa: www.nbu.uz

Ma'lumot 10.11.2025 holatiga ko'ra aktual